

SOFOKLNING “SHOH EDIP” ASARI SUJET

*Ro‘zmatova Xurshida**Urganch Ranch texnologiya universiteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasidagi obrazlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, Sofokl zamonasida keng tarqalgan Edip Lay afsonasi va “Shoh Edip” tragediyasidagi sujet o‘xshash liklari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: tragediya, sujet, obraz, Edip Lay afsonasi, korinfilik

Yunon dramaturgi, shoir, siyosiy va harbiy arbob Sofokl miloddan avvalgi 495-yilda tug‘ilgan. Antik manbalarga ko‘ra ko‘plab asarlar yaratgan. Biroq ularning ko‘pchiligi bizgacha yetib kelmagan. Sofokl oltmish yillik ijodiy faoliyati davomida 120 dan ortiq asarlar yozadi. Ijodkorning 123 ta dramasi mavjud bo‘lib, shulardan 7 tasi “Ayaks” miloddan avvalgi 442-yildan oldinroq, “Anigono” taxminan miloddan avvalgi 441-yil, “Traxinalik ayollar” yozilgan vaqti no‘malum, “Shoh Edip” va “Elektro” miloddan avvalgi 415-yillar orasida 409-yil, “Edip Kolondavv” 401-yil, ayrim dramalardan parchalar ba’zi lirik she’rlari yetib kelgan.

Sofokl asarlari orasida bugungi kungacha saqlanib qolgan eng nodir asari “Shoh Edip” tragediyasi hisoblanadi. Mazkur asar Edip Lay haqidagi afsona sujeti asosida yozilgan. Bu afsona o‘z zamonasida ko‘p variantlarda tarqalgan va Sofokl bu afsonaga katta qiziqish bilan qaraydi va shu sujet asosida, “Shoh Edip”, Edip Kolonda”, “Antigona” deb nomlanuvchi tragediyalarini yozadi. Fiva podshosi Lay befarzandlikdan azob chekadi. Uning bu dardini korxonalarga yetkazganlarida, koxinlar Layning o‘g‘il farzand ko‘rmoqchiligi haqida vaxiy kelgani haqida aytishadi. Ammo bu farzand yillar o‘tib otasini o‘ldirishi shohga yetkaziladi. Oradan oylar o‘tib Layning xotini o‘g‘il farzand ko‘radi. Lay xursand bo‘lish o‘rniga vahimaga tushadi. Bir kun kelib o‘g‘lining o‘ldirib qo‘yishidan cho‘chigan Lay yarim tunda chaqaloqni xizmatkori qo‘liga topshirib, hech kimga sezdirmasdan o‘rmondagi yirtqich hayvonlarga tashlab ketishini buyuradi. Yo‘lda ketayotganda chaqaloqqa rahmi kelib xizmatkor bolani qo‘shni mamlakat podshohligi berib yuboradi. Yo‘lda hayol surib ketayotgan yigitga bezatilgan aravani qo‘riqlab ketayotgan soqchi yo‘ldan qoch deydi. G‘azablangan yigitcha soqchini ot bilan pastlikka uradi. Bundan g‘azablangan ikki soqchi nayzasini o‘qlaydi. Yo‘lovchi cholning hossasini tortib olib boshiga uradi. Chol shu zahoti vafot etadi. Keyinchalik yigit shu shaharga podshoh bo‘ladi.

Asar real muhitga yaqin tarzda yozilgan voqealar rivojida, har bir qahramon qiyofasida, ularning ong osti kechinmalari, hayotiy haqiqatlarini ko‘rishimiz mumkin. Edip asarda juda uddaburon, dono Fiva shahri ostonasida paydo bolgan Sfinks

maxluqining hech kim topa olmagan topishmog'iga faqat u yechim topib xalqni qutqaradi. Uning timsolida o'sha davr koloriti namoyon bo'ladi, ya'ni har bir ishda mabudlarga yuzlanib ulardan to'g'ri yo'l so'raydi. Edip juda adolatli edi.

U xalq boshiga birdan tushgan ofatlarga sabab podshoh Layning Fivada va u jazolanmaguncha bu kulfatlar tugamasligini bilgach, shunday farmon beradi toat-ibodatlar man etilsin chunki shahrimizga kelgan ofatlarning sababi o'sha. Bu farmonga ko'ra inson foniyl dunyoda qaysi pog'onada xoh shoh bo'lsin, xoh oddiy fuqaro hech kim o'z qilmishiga yarasha jazo olmay qolmasligini ta'kidlaydi. Edip juda ehtiyotkor, mulohazakor, sabrli shaxs edi. U qotilni izlash davomida hech bir voqeani nazardan qochirmaydi, ma'lumotlar va dalillarni sinchiklab o'rganadi. Qotillik sodir etilgan kun o'sha voqeani bir necha yil avval o'z boshidan kechirgan hodisaga aloqador bo'lib chiqishdan xavfsiraydi, bashorat bekor bo'lib otasi Polib o'z ajali bilan vafot etganini Korinfilik elchidan eshitgach, biroz xotirjam bo'ladi, ammo rafiqasi Iokastaning bashoratlarga ishonmaslik kerak deb o'z o'g'li qismati haqida aytganlari o'zining taqdir bilan mos tushayotganidan qo'rquvga tushadi, lekin inson yashar ekan unda hamisha umid, so'ngi ilinj tuyg'usi bo'ladi. Edipning onasi bilan nikohini "Mifologik ravishda baholash" deb bilamiz. Shu o'rinda Freyd ta'limotining asosini tashkil qilgan "Epipokompleks"ga yuzlanamiz. Unga ko'ra, Edipning onasiga uylanishi ong osti hislarining namoyon bo'lishidir, chunki Freyd fikricha har bir jins o'z jinsiga nisbatan hatto o'z onasiga bo'lgan munosabatda shahvoniy mayl bilan munosabatda bo'ladi.

Sofoklning o'tmishdoshi Esxil va izdoshi Yevripeddan farqli o'laroq, Sofokl voqealikni qanday bo'lsa shunday qabul qilib, Yunonistonning gullagan davridagi demokratiya asoslariga shubxa bilan qaramagan. Uning "Traxinalik ayollar" tragediyasidan boshqa barcha asarlari oliyjanob kishilarning nomlari bilan atalgan va bu asarlarning qahramonlari murakkab vaziyatda do'q va qo'pisalarga yoxud murosaso'zlikka davat etuvchi kengash va maslahatlarga qaramay, o'z maqsadlari sari intiladilar. Gyote "Sahnani va o'z kasbini hech kim Sofokldek bilgan emas" deya ta'riflaydi. Sofokl o'zining ulkan zamondoshi Esxilga nisbatan qahramonlarning xarakterini tavsif qilishda turli-tuman usullarni qo'llab tragediya sa'natini yuksak kamolot sari chiqishga ko'taradi. Afinalik yozuvchi Sofoklning "Shoh Edip" asari bugungi kungacha saqlanib qolgan eng nodir asar hisoblanadi. Muallif vafotidan 20 asr o'tgan bo'lsa-da u o'z mashhurligini yo'qotmagan. Bu asarni Asqad Muxtor 1958-yilda Moskva shahrida "Xudojestvennaya literatura" nashriyotida chop etilgan ruscha tarjimasidan o'zbekchaga o'giran. Shunday qilib "Shoh Edip" tragediyasi 1979-yilda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan. Bu asar taqdiri xudolar tomonidan boshqarilgan odamning baxtsizliklari haqidagi asardir.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, ushbu xatolarning bosh sababidan faqat kuchli insonlarga o'zini saqlay oladilar. Bu insonlarni xato qilishiga yo'l ochib beradigan oxirida o'zlarini pushaymon qildiradigan narsa inson xarakteridagi

g‘azabdir.”Shoh Edip” haqidagi afsona bilan bugungi kun nazariyasidagi axloqiy qarashlar mos kelishi qiyin. Shu sababdan ham bu asar kuchli psixologizm bilan yozilgan asar hisoblanadi. O‘g‘lini go‘dakligida o‘limga yuborgan ota o‘z taqdirini o‘zi hal qildi, shu bilan Edip emas balki ota o‘z o‘g‘lining qo‘llari bilan o‘zini o‘ldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sofokl. Shoh Edip. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa'nat nashriyoti, 1979. - 76 b.
2. Jahon adabiyoti.T.; 2006.
3. Shu. Nurmatova. Jahon adabiyoti. T.: 2008